

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Nuritdinova X.N.

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmun mohiyati, talaba-yoshlarning kommunikativ kompetentligini yuksaltirish tizimi samaradorligini ta'minlash hamda kommunikativ kompetensiya haqida olimlarning qarashlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, kompetensiya, pedagogik-psixologik, mexanizmlar, bilimlar, malakalar, tajriba, kognitiv.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sod Farmonida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliv ta’lim muassasalarini faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliv ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish kabi vazifalar belgilab olindi. Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlashda ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetentlilagini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zarur ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlilik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko‘plab olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o‘zaro munosabatlarni, shaxsnинг kommunikativ hatti-harakatlarini nazariy o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Biroq, odamning ijtimoiy funksiyalarni bajarishda uning nutqiy tayyorligini ham amaliy o‘rganish zarur hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentlilik tushunchasi, bizning fikrimizcha, ijtimoiy gumanitar bilimlarni talabalarning barcha hayotiy jarayonlarida barkamol aloqa qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish va shuning uchun ularning ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun amaliy harakatlari bilan bog‘lashga yordam beradi. Shunga ko‘ra, turli xil ta’lim islohotlarini amalgalashni o‘sishga imkon beradi.

oshirishda, xususan, ta'limning yangi davlat standartlariga o'tishida va bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda e'tiborga olinishi mumkin bo'lgan ilmiy tavsiyalarning ahamiyati o'sib bormoqda. Zamonaviy o'quv jarayonidagi asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy qobiliyatları, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentliligini shakllantirish, ular nafaqat akademik bilimlarga, balki turli sohalar va faoliyatlardagi muammolarni ijobjiy hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur sanaladi. Maqsad. Mamlakatimizdagi ta'lim islohotlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning eng ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlari: muloqotchanlik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, biznesga ijodiy yondoshish, qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Bunday fazilatlarni bo'lajak mutaxassislarda shakllantirish, ularga kelajakda samarali faoliyatni sifatli olib borishga imkon beradi. Muammo shundaki, nutq mas'uliyatini oshirish bilan bog'liq kasblar uchun yuqori sifatli samarali muloqotni, so'zni o'zlashtirish qobiliyati, so'z yordamida professional muammolarni hal qilishga o'rgatishdir. Bizning tadqiqotdan ko'zlagan maqsadimiz pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kommunikativ kompetentliligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, nazariy jihatdan asoslash hisoblanadi.

Kommunikativ kompetentlilikni mutaxassisning umumiyligi kasbiy kompetentligi strukturasida mustaqil komponent sifatida ajratishning zarurligini tasdiqlash foydasiga, olima V.V. Sokolova "bir qator kommunikativ deb nomlanadigan kasblar, xususan o'qituvchilik kasbi uchun kommunikativlik, kommunikatsiya (muloqot) faoliyat struktursida asosiy hisoblanadi, shuning uchun pedaogning funksiyalaridan hech birini, uning faoliyat turlarining hech birini pedagogik muloqotdan tashqarida, kasbiy nutq madaniyatidan tashqarida amalga oshirib bo'lmaydi. Muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyati strukturasiga kiruvchi odatiy funksiyasi emas, u ushbu faoliyatning shakli, sharti, uning vositasi va ma'lum bir ma'noda o'qituvchi, muallim, pedagog faoliyatining maqsadidir.

Demak, bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, kommunikativ kompetentlilik inson hayoti va faoliyatining barcha tomonlarini, jumladan uning kasbiy faoliyati sohasini ta'minlaydigan tayanch kompetentlik sifatida fikrlab tushunilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. X Nuritdinova MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot 1 (28), 135-137
2. X Nuritdinova SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI Zamonaviy dunyoda

pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 1 Tom Homep 27 32-33
Страницы

3. X Nuritdinova KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O'RNI Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 1 (7), 158-160
4. X Nuritdinova MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI Eurasian Journal of Academic Research 2 (3), 448-451
5. ST Xabilova, M Nazarova "MENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN" Innovative research in modern education 97-99 2023.5.17 <http://aidlix.com/index.php/ca/article/view/651>
6. S Xabilova "EDUCATION OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN A MODERN SPIRIT" International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research 3(4) 132-135 2023.4.26 <http://www.researchcitations.com/index.php/ibmscr/article/view/1234>
7. Xabilova, S. (2023). THE PECULIARITY OF FORMING THE PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF EDUCATORS. Educational Research in Universal Sciences, 2 (6), 202–204. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3373>
8. Development of creativity of students of higher educational institutionspedagogical justification M Kuvvatova, F Kholmuminova International Conference On Higher Education Teaching 1 (3), 110-11
9. TO DEVELOP THE CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION IMPORTANCE QM Hikmatullayevna TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИ ONLAYN ILMIY JURNALI 2 (12), 262-264
10. REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITIES BASED ON A COMPETENCE-BASED APPROACH M Quvvatova, R Abdusalomova Наука и инновация 1 (9), 137-139
11. Hikmatullaevna, M. K. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 571-574.
12. Yangiboyevna, Gafforova Hurriyat. "Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years." EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY 2.1 (2022): 81-83.